

Date: 23rd October-2025

AYOLLAR POYABZALINING DIZAYN VA KONSTRUKSIYASINI
ZAMONAVIY YECHIMLARINI YARATISH

Tursunkulova Maxsuda Suyarkulovna

Buxoro davlat – texnika universiteti

“Yengil sanoat muhandisligi va dizayn” kafedrasi t.f.n.(PhD)

E-mail: tursunkulovamaxsuda83@gmail.ru

Bozorova Marjona Aslbekovna

Buxoro davlat – texnika universiteti

200-25 Diz (PA) guruh talabasi

Annotasiya. Ayollar poyabzallari dizayni va konstruksiyasini takomillashtirish borasida xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xorijiy manbalarda asosan poyabzalning ergonomik qulayligi, baland qo'ng'li va past qo'ng'li modellarning anatomik tuzilishi, shuningdek, ekologik toza materiallardan foydalanish masalalariga katta e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlari: Ayollar poyabzali, milliy poyabzal, dizayn, konstruksiya, innovatsion texnologiyalar, ergonomika, zamonaviy moda, milliy an'analar, etno-dizayn, kompozitsiya, biomexanik tahlil, 3D modellashtirish, ekologik materiallar, xalq amaliy san'ati, estetik yechimlar, funksional qulaylik, milliy naqshlar, zamonaviy tendentsiyalar, moda yo'nalishlari, yangi konstruktiv yechimlar.

Kirish. Hunarmandchilik, turizm va aholini ish bilan ta'minlash masalalari Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning doimiy e'tiborida turadi. Bu borada fikrim shuki sohalar nafaqat iqtisodiyot, balki xalqimizning turmush darajasi va madaniyatini yuksaltirishda juda muhim o'rin tutadi. Prezidentimiz o'z nutqlarida ko'p bor “har bir oila – tadbirkor, har bir mahalla – ishlab chiqaruvchi, har bir yosh – kasb egasi bo'lishi kerak”¹ deb ta'kidlaydilar. Bu so'zlar menga ishtiyoq ishonch bag'ishlaydi, bir hunar har qanday insonni mehnatsevarlikka, o'z ishini yaratishga undaydi. Hunarmandchilik bu borada eng qadimiy, eng milliy va qiziqarli yo'nalishlardan biridir. Bizning ajdodlarimiz yaratgan kulolchilik, kashtachilik, zargarlik, yog'och o'ymakorligi kabilar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Prezidentimizning 2021-yilda qabul qilingan qarorlarida hunarmandchilikni rivojlantirish, hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash va bandlikni oshirish masalalari alohida ko'rsatib o'tilgan². Bu qarorlar orqali ko'plab ustalar o'z faoliyatini kengaytirdi, yoshlar kasb-hunar o'rganish imkoniga ega bo'lishdi. “Hunarmand” uyushmasi faoliyati kengaydi, hunarmandlarga imtiyozli kreditlar va zarur sharoitlar yaratildi.

Milliy kolleksiyalar nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro maydonda ham katta qiziqishga sabab bo'lmoqda. Milliy naqshlarimiz o'zbek madaniyatining o'ziga xosligini namoyish etadi. Biz kabi yosh dizaynerlar uchun bu yo'nalish katta imkoniyatlar yaratadi. Hohlardimki men o'z ijodim davomida milliy naqshlar asosida global modaga mos, qulay



Date: 23rd October-2025

va zamonaviy kastyum va milliy oyoq kiyim kolleksiyalarimni yaratish orqali milliy brendimni shakllantirishni. O'ylaymanki hozirgi kunda milliy oyoq kiyimlarni zamonaviy uslubda qayta tiklash, ularni dizayn jihatidan yangicha shaklda ishlab chiqish qiziqarliroq bo'ladi. Zamonaviy oyoq kiyimlarga qadimiy uslubda mato va naqshlar tushirish ularni hozirgi yosh ayol va qizlarimiz tanlayotgan uslubdagi kiyimlar bilan uyg'unlashtirib moslash kreativ g'oya bo'lar edi. Bunday ko'rinish nafaqat milliylik bilan, balki kundalik kiyimlar bilan ham chiroyli mos tushadi. Mamlakatimizda har bir sohada ulkan o'zgarishlar bo'lmoqda.

Ayollar milliy poyabzallari insonning nafaqat ehtiyojini, balki millat madaniyati, an'analari va estetik dunyoqarashini ham ifoda etadi. Hozirgi kunda milliy poyabzallar dizaynini yangicha yondashuvda yaratish, ularning konstruksiyasini takomillashtirish va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish ilmiy tadqiqotlar markazida turibdi.

Yevropa, Koreya, Yaponiya va Italiya kabi davlatlarda poyabzal ishlab chiqarish sohasi modaniy va texnologiyaviy innovatsiyalar bilan bog'liq ravishda rivojlanmoqda. Masalan:

Italiyalik dizaynerlar (Prada, Ferragamo, Gucci) o'z ishlanmalarida milliy elementlardan ilhomlanib, zamonaviy geometriyalik shakllar, teri va tekstilni uyg'un qo'llash orqali ayollar poyabzallarida nafosat va qulaylikni ta'minlamoqda. Milliylik orqali xalqning o'zligini saqlab qolish, an'anani zamonaviylik bilan uyg'unlashtirish va milliy qadriyatlarni kelajak avlodlarga yetqazish. Bu borada o'z milliylikni urf odatini o'z kolleksiyalarida xorijlik bir nechta dizaynerlar ko'plab namoyishlar olib borgan. Guo Pei (Xitoy) Milliy naqshlar, xitoycha bezaklar, tarixiy motivlar va hunarmandchilik san'atidan ilhom oladi. U o'zining "Samsara" haute couture kolleksiyasida gold embroidery, dramatik effekt, klassik xitoy motivlari bu uslubni namoyish etgan. 2006-yilda "Samsara" deb nomlangan ilk haute couture namoyishi. 2022-yilda "Rich Mnisi's first collaboration with adidas" kolleksiyasi Tsonga heritage motivlari bilan ko'rinish bergan. Mashhur dizaynerlarning men bilgan bir nechta dissertatsiya va akademik maqolalari moda olami uchun menga yangicha krish boldi. Masalan: Brenda Mondragon-Toledo ning 2024-yildagi "The case of Otomi embroiderers and Carla Fernandez" nomli maqolasi Ushbu maqolada Carla Fernandez va Mahalliy Otomi hunarmandlari o'rtasidagi hamkorlik tahlil qilinadi. Indigenous topilmalarning moda sohasiga qanday kirishi, hunarmandlar va dizayner o'rtasidagi muloqot, brend va iste'molchi orasida qanday dinamikalar borligi ko'rib chiqiladi. Va ya bir Courtney R. Fu ning 2020 yildagi Chinese Art and Couture" nomli maqolasi. Ushbu maqolada Guo Pei ning Xitoy an'analari, san'ati va haute couture moda uslublarini uyg'unlashtirishi, kiyim va libos bezaklarida qadimiy motivlarning zamonaviy interpretatsiyasi yoritilishi ko'rsatilgan. Moda olamida hozirgi davr utgan davr keskn farqlanib bormoqda.

Koreya va Yaponiya tadqiqotchilari esa poyabzalning ergonomik va anatomik qulayligiga katta e'tibor qaratish bilan birga, 3D skanerlash va kompyuter modellashtirish orqali poyabzal konstruksiyasini to'liq raqamli muhitda yaratishni amalga oshirmoqdalar.



Date: 23rd October-2025

Yevropa ilmiy markazlarida poyabzalning konstruktiv elementlarini ekologik toza va qayta ishlanadigan materiallardan tayyorlash bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, poyabzal dizaynida etno-motivlar va xalq amaliy san'atidan foydalanish tendentsiyasi kuchaymoqda (masalan, Vengriya va Polshadizayn maktablarida).

Dior 2021 Cruise Collection - Gretsiya mifologiyasi va qadimiy drape bezaklari asosida yangicha uslubda tikilgan. Bu yo'nalish modada milliylikni yo'qotmasdan, zamonaviy ko'rinishda saqlash tamoyilini ko'rsatadi. Agar tarixda milliy kiyim madaniy zarurat bo'lgan bo'lsa, bugun u moda orqali ifodalanadigan milliy faxrdir. Zamonaviy dizaynerlar - o'z ildiziga sodiq qolgan holda - milliy naqsh, rang, shakl va ma'nolarni global moda tilida qayta talqin etmoqda. Har bir milliy libos - bu xalqning yuragi bilan tikilgan san'at asaridir. O'zbekiston modasidagi tarix va hozrgi kun esa biroz farqlanadi. Milliylikdan chetga chqqan holda zamonaviylikka urg'u berilmoqda. Ammo hozrgi kunga kelib yana eski davr modasi jonlanishni boshladi. O'zbekiston tarixidan har bir viloyat o'ziga xos kiyinish madaniyatiga ega bo'lgan:

Buxoro va Samarqand - ipak atlas, adras, zardo'zi bilan bezatilgan hashamatli liboslar. Xiva va Xorazm - keng bichimli, rang-barang matolardan tikilgan liboslar, zar ip bilan bezatilgan do'ppi va chiroyli etiklar. Farg'ona vodiysi - atlas, beqasam, gul naqshlar bilan to'qilgan yengil matolar, ko'p hollarda gulduzlar bilan bezalgan. Qashqadaryo, Surxondaryo - issiq iqlimga mos yengil liboslar, tabiiy bo'yoqlar bilan rang berilgan. Ayollar kiyimi ko'proq hayo, go'zallik va oilaviy qadriyatlarni, erkaklar libosi esa qudrat, soddalik va mehnatsevarlikni ifodalagan. Sovet davriga kelib - milliylikni so'nishi va g'arbiylashuv boshlandi. XX asrda, xususan Sovet davrida, moda "bir xillik" siyosati ostida rivojlandi. Kiyimlar soddalashdi, milliy naqsh va shakllar kamaydi. Ammo shu davrda ham ba'zi dizaynerlar milliy bezaklarni saqlashga urindi: atlas va adras matolari kiyimlarda dekor sifatida saqlanib qoldi. Do'ppi va chust etiklar milliy belgilar sifatida e'tiborda qoldi.

Aynan shu davrda "O'zbekiston moda haftaligi", "Style.uz", "Art Week" kabi tadbirlar milliy dizayn maktabining rivojiga hissa qo'shdi. Hozirgi davr - milliylik va zamonaviylik uyg'unligiga qaraldi. Bugungi o'zbek modasi - milliy ildizlardan ilhomlangan zamonaviy uslubdir. Yosh dizaynerlar milliy naqsh va shakllarni qayta talqin etishmoqda: atlas, adras, zamonaviy ko'ylak, kostyum va poyabzallarda; do'ppi naqshlari - sumka, sharf, etik va hatto aksessuarlarda. Zardo'zi bezaklari - kechki libos va podium kiyimlarida qo'llanmoqda. Yangi avlod dizaynerlari - ekologik matolar va texnik innovatsiyalarni milliy ruh bilan uyg'unlashtirishdi. Bugungi o'zbek modasi nafaqat ichki bozor, balki xalqaro moda maydonida ham milliylikni targ'ib qilayotgan yangi avlod ovozidir. Agar tarixda o'zbek libosi xalqning turmush tarzi va urf - odatini ifodalagan bo'lsa, bugungi moda - milliy g'urur va san'atning yangicha talqinidir. Zamonaviy dizaynerlar milliylikni trendga aylantirib, bir vaqtning o'zida o'zbekona va global uslub yaratishmoqda. Moda bu vaqt bilan o'lchanmaydigan san'atdir. U doim o'zgarib turadi va xalqning yuragida yashaydi.



Date: 23rd October-2025

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda milliy poyabzallar dizayni bo'yicha tadqiqotlar faol olib borilmoqda. Respublika dizaynerlari va olimlari tomonidan milliy an'analarga asoslangan holda, zamonaviy texnologiyalar yordamida yangi konstruktsiya va shakllar ishlab chiqilmoqda.

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, Kamoliddin Behzod nomidagi san'at va dizayn instituti olimlari poyabzal konstruktsiyalarida milliy naqshlar, ipak, adras, zardo'zlik va milliy bezak elementlarini zamonaviy dizayn bilan uyg'unlashtirish bo'yicha ishlanmalar tayyorlamoqda.

Milliy poyabzallarda an'anaviy "maxsi", "choriq", "kavush" turlariga asoslangan holda yangi modellar yaratilmoqda. Ular zamonaviy moda talablariga mos ravishda yengil, ergonomik va estetik jihatdan takomillashtirilgan.

Respublika tadqiqotlarida poyabzal konstruktsiyasini ishlab chiqishda formalash usullari, pastel va tabiiy materiallardan foydalanish, hamda milliy uslubni saqlagan holda funktsional dizayn yaratish asosiy yo'nalish hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlillar va olib borilgan izlanishlar natijasida aniqlandiki, ayollar milliy poyabzali nafaqat milliy madaniyatimizning muhim qismi, balki zamonaviy moda yo'nalishlariga mos ravishda yangicha yondashuvni talab qiladi. Milliy poyabzal konstruktsiyasida an'anaviy bezaklar, ranglar va tabiiy materiallardan foydalanish milliy qadriyatlarni asrab qolish bilan birga, dizayn sohasida yangi tendentsiyalarni joriy etish imkonini beradi. Shu bilan birga, respublika va xorijiy olimlarning ilmiy ishlanmalari milliy poyabzal modellarini takomillashtirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Milliy poyabzallarimizga zamonaviy estetika va ergonomika talablarini uyg'unlashtirgan holda yondashish orqali ularni nafaqat mahalliy bozorda, balki xalqaro miqyosda ham tanitish mumkin. Shu maqsadda ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish, yangi texnologik yechimlar va materiallardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2018-yil 8-iyundagi 20/1-son qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.12.2021 yildagi PQ-77-son.
3. М.С.Турсункулова. Интернаука 2021г. Применение творческих элементов в национальном ремесле.
4. М.С Турсункулова - WORLD OF SCIENCE, 2025. Бухоро миллий либослари-накшларга боғланган тарих ва санъат.
5. М.С Турсункулова - WORLD OF SCIENCE, 2025. Миллий либослар-миллат руҳининг ифодаси.

